

ZAMONVIY JAMIYATDA XOTIN-QIZLARGA NISBATAN OILADA
JISMONIY ZO‘RAVONLIKNING IJTIMOIIY OMILLARI VA OQIBATLARI

O’ZMu Ijtimoiy ish yo’nalishi

3-kurs talabasi Niyozova A’loxon Ilhom qizi

+(998)95-002-74-34 @ilhomjanovaaa

Anatasiya. *Ushbu maqolada xotin-qizlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni qo‘llab quvvatlash tizimini takomillashtirish masalalari yoritilib berilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda xotin-qizlar uchun yaratilyotgan imkoniyatlar, gender tengligi, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish, iqtisodiy mustaqilligini oshirish va zo‘ravonlikdan ximoya qilish borasuda amalga oshirilayotgan islohatlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *Gender tenglik, streatip, jamiyat, xotin-qizlar, huquq, “Ayollar daftari”, tendensiya, ijtimoiy himoya, ta’lim, bandlik, xotin-qizlarning huquqlari, iqtisod, jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik.*

Xotin-qizlar dunyo aholisining qariyb yarmini tashkil qiladi, ammo ularning kichik qismi mutanosib ravishda munosib ish bilan ta’minlanadi va qarorlar qabul qilish jarayonida qatnashadi. Siyosatda va jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollarning to‘liq va teng ishtirokini ta’minlash rivojlanish uchun juda muhimdir. Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikka erishish masalasi ustuvor ahamiyatga ega. Chunki xotin-qizlarning huquqiy madaniyatga, ularning oilada, jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlari, o‘z bilim va salohiyatlarini namoyon qila olishlari, ham oilaga, ham jamiyat ravnaqi uchun hissa qo‘shishlarida muhim. Shunday ekan ayollarning huquqlarini himoya qilish bilan birga biz ularning erkaklar bilan teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ham ta’minlashimiz, bilim olishiga keng imkoniyatlar berishimiz hamda gender tenglikka erishishga harakat qilishimiz zarurdir.

Gender tenglik- bu oilada va jamiyatda erkak va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar hisoblanadi. Gender tenglik jamiyat taraqqiyoti, barqaror rivojlanish va inson huquqlari himoyasining ajralmas qismi sanaladi. Ma’lumki, oilaviy zo‘ravonlik jinsga asoslangan zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Oilaviy zo‘ravonlik bu - biror-bir oila a’zosiga oilaning boshqa bir a’zosi tomonidan do‘q-po‘pisa qilinishi, bosim o‘tkazilishi, haqorat qilinishi natijasida vujudga keluvchi jarayon bo‘lib, u oiladagi insonlar o‘rtasida sodir bo‘ladi. Har bir inson oiladagi zo‘ravonlikning qurboni yoki ijrochisiga aylanishi mumkin. Biroq, qayd etilgan holatlarning aksariyati erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan sodir etiladi. Barchamizga ma’lumki bugungi kunda oilada balki jamiyatimizda ham ayollarga nisbatan zoravonlikni nafaqat jismoniy balki boshqa turlari ham mavjud va bu achchiq haqiqat bo‘lsa ham doimiy ravishda sodir bo‘lib

kelmoqda. Xususan ayollarga nisbatan qollaniladigan gender sterotiplar orqali ham ayollarga birqancha zo‘ravonliklar amalga oshib kelmoqda. Va bu orqali ayollarning ijtimoiy hayotida qiyinchiliklar yanada ortib bormoqda. Jamiyatimizda hamda oilarda bunday muammolarning bartaraf etilishi uchun mamlakatimizda bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilib bularni jamiyat hayotiga ijobiy ta’ sir etib kelayotganliqi quvonarli albatta. Jumladan O‘zbekistonda 2019- yil 2- sentabrda 562- sonli O‘zbekiston respublikasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, Gender tenglik bo‘yicha komissiya aynan shu yildan ish yurita boshladi. Yana shuni aytib o‘tish joizki ayollarimiz erkin bilim olishi uchun ularga foizsiz ta’lim kriditlari berilishi hamda magistraturada xech qanday kantrakt to‘lovlarisiz tahsil olishlariga yaratilgan imkoniyatlar ham ayollarimizni qo‘llab-quvvatlashning yaqqol namunasidir.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi har uchinchi ayolga hayoti davomida o‘z umr yo‘ldoshi tomonidan jismoniy tazyiq o‘tkaziladi. Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zo‘ravonlik holatlarigaduch kelganlari haqida ma’lum qiladi. Ayollar o‘limining 38 foizi ularning turmush o‘rtog‘i tomonidan amalga oshiriladi va zo‘ravonlikka duch kelgan ayollarning 42 foizigina muammo haqida ochiq so‘zlaydi. Aksariyat holatlarda zo‘ravonlik qurboni sharmandalik va turli gap so‘zlardan qo‘rqib jim yurishga majbur bo‘ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab bo‘ladi, kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qo‘rqsa, boshqalari farzandlari va o‘z hayoti uchun xavfsiraydi.

Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi xabariga ko‘ra, 7 oy ichida 3592 nafar xotin – qizlarga himoya orderi berilgan. Vazirlik ma’lumotiga ko‘ra, himoya orderlari berilgan hududlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Buxoro viloyatlari soni boshqalarga nisbatan ko‘p. Joriy yil 20 aprel holatiga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan 14 nafar ayol farzandlari bilan Andijon, Buxoro, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo viloyatlaridagi Reabilitatsiya va moslashtirish markazlariga joylashtirildi. Ularga kerakli huquqiy, psixologik, tibbiy yordam ko‘rsatib kelinmoqda. Bu statistik ma’lumotlar inson o‘z ustida ishlab, g‘azabini jilovlashni o‘rganmagunigacha shayton vasvasasidan holi bo‘la olmaydi. O‘zini, atrofida gilarini, jamiyatini uyatli holatga solib qo‘yaverishini ko‘rsatmoqda. Zero, baxtli bo‘lish, farovon hayot kechirish har birimizning o‘z qo‘limizda.

Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning turlari va oqibatlari. Zo‘ravonlik bir qancha turlarga bo‘linadi, va har biri o‘ziga xos tarzda ayollarning ruhiy vajismoniy holatiga ta’sir ko‘rsatadi:

Jismoniy zo‘ravonlik: Ayollarga nisbatan jismoniy jarohat yetkazish, ularni kaltaklash, ularning sog‘lig‘i va hayotiga xavf soladi. Bu nafaqat ularning sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazadi, balki psixologik jarohatlarga ham olib keladi.

Ruhiy zo‘ravonlik: Tahdid qilish, xo‘rlash, qo‘rqitish, doimiy tanqidlar vamanipulyatsiyalar qurbonning ruhiy barqarorligini buzadi. Bunday jarayonlar ayollarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotishiga, depressiyaga tushishiga va boshqa ruhiy kasalliklar rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Iqtisodiy zo'ravonlik: Moliyaviy nazorat qilish, ayollarning mehnat qilish huquqinicheklash yoki ularni moliyaviy mustaqillikdan mahrum qilish orqali amalga oshiriladi. Bu holatularni zo'ravonlikdan qochib qutulish imkoniyatidan ham mahrum qiladi.

Jinsiy zo'ravonlik: Ayollarning jinsiy erkinliklari va huquqlarini poymol etish, ularnimajburlash yoki zo'ravonlik bilan jinsiy aloqaga jalb qilish ularning jiddiy travmatik jarohatlarolishiga olib keladi. Zo'ravonlikning har qanday turi xotin-qizlarning hayotiga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va oilaviy hayotini izdan chiqaradi. Bunday holatlar uzoq muddatli travmalar, post-travmatik stress buzilishi (PTSB), tashvish buzilishlari va depressiya kabikasalliklarga olib kelishi mumkin

1967 yil 7 noyabrda BMT Bosh Assambleyasining 2263 (XXII) – rezolyusiyasibilan e'lon qilingan “Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risida”gi deklaratsiya qabul qilindi va ushbu deklaratsiya 11 moddadan iborat. Unda ayollar va erkaklarning jamiyatning barcha sohalarida teng huquqliligi ta'minlash belgilanishi bilan bir qatorda, barcha millat va elat vakillarini gender tenglik prinsipini to'g'ri anglab yetishlari lozimligi qayd etilgan. “Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risida”gi deklaratsiyaning 3–moddasida “Ayollarning to'laqonli emasligi g'oyasiga asoslangan tushunchalarga barham berish, odatlar va boshqa amaliyotn tugatishga jamoatchilik fikrini tayyorlash va milliy intilishlarni qaratish maqsadida barcha tegishli choralar ko'rilishi lozim”, deb belgilangan.

Xulosa. Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish – inson huquqlarinihimoya qilish, jamiyat barqarorligini ta'minlash va adolatli muhit yaratish yo'lidagi muhim qadamdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun davlat organlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari va har bir shaxsning birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi. Qonunchilikni kuchaytirish, ta'lim orqali xabardorlikni oshirish va gendertenglikni targ'ib qilish orqali biz zo'ravonlikning ildiziga qarshi samarali kurasha olamiz. Ayollarga hurmat va teng imkoniyatlar ta'minlangan jamiyat esa iqtisodiy va madaniy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shunday ekan, barchamiz bu mas'uliyatni his qilib, harakat qilishimiz zarur, chunki xavfsiz va adolatli jamiyatni qurish har birimizning qo'limizda“.Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak” deb ta'kidlanadi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Latipova, X. Ziyayeva. Oila gender satsialogiyasi. O'quv qo'llanma. Zeboprint nashiriyoti, 2022.
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi
3. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” gi qonun 2019-yil
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar verkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolotlari to'g'risida” gi O'RQ-562-son qonuni

10-Aprel, 2026-yil

5. <https://inlibrary.uz/index.php/interpretation-research/article/view/78829>
6. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44427>
7. “Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to‘g‘risida”gi deklaratsiya 1967
- 8.
7. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0068/68_i_20250307_210538_4.9.pdf

pdf